

BUYUK IPAK YO'LINING TASHKIL TOPISHI VA TARIXIY TARAQQIYOT BOSQICHLARI: QADIMIY ILDIZLARDAN BUGUNGI KUNGACHA

Muhammadova Jahona

Email: mjakhonabegim716@gmail.com

Sharipova Nargizaxon Abduqaxxorovna

Ilmiy rahbar

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20525309>

ANNOTATSIYA Ushbu tezisdagi Buyuk Ipak yo'lining qanday vujudga kelgani, unga asos bo'lgan qadimiy savdo yo'llari hamda mintaqa xalqlari o'rtasidagi bordi-keldi aloqalari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida O'rta Osiyo yerlarining ushbu ulkan tarmoqdagi o'rni, ipakchilikning kirib kelishi va Kushonlar davridagi savdo rivoji masalalari mavjud ilmiy manbalar asosida batafsil yoritilgan. Shuningdek, Prezident Sh. Mirziyoyevning «Bir makon, bir yo'l» tashabbusi doirasidagi fikrlari asosida yo'lining bugungi kundagi ahamiyati tushuntirib beriladi.

ABSTRACT This thesis analyzes the origins of the Great Silk Road, the ancient trade routes that served as its foundation, and the evolution of economic and cultural relations among the peoples of the region. Drawing upon available scholarly sources, the study provides a detailed exploration of Central Asia's strategic role within this vast network, the introduction of silk production, and the flourishing of trade during the Kushan Empire. Furthermore, the contemporary significance of the route is evaluated through the lens of President Shavkat Mirziyoyev's initiatives within the "One Belt, One Road" framework, highlighting its importance in modern regional integration.

Kalit so'zlar: Buyuk Ipak yo'li, Lojuvard yo'li, Shoh yo'li, Chjan Szyan, Farg'ona, Kushonlar, bir makon bir yo'l.

KIRISH

Insoniyat tarixida Sharq va G'arb xalqlarini iqtisodiy, madaniy va ma'naviy jihatdan bog'lagan eng yirik hodisa bu — Buyuk Ipak yo'lidir. Bu yo'l nafaqat mol ayirboshlash vositasi, balki turli xalqlar, dinlar va yangi kashfiyotlarning bir-biriga o'tishiga xizmat qilgan maydon bo'lgan. Professor J. Ramatov aytib o'tganidek, «Buyuk Ipak yo'li tarixini o'rganish — mustaqil O'zbekiston tarixini o'rganishning ajralmas qismidir». Bugungi kunda ushbu tarixiy yo'lni qaytadan tiklash va uni zamonaviy yuk tashish yo'laklariga aylantirish dunyo miqyosida muhim sanaladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, «Markaziy Osiyo qadimdan Buyuk Ipak yo'lining markazi, G'arb va Sharqni bog'lab turuvchi o'ziga xos ko'priklar vazifasini o'tab kelgan». Ushbu ishimizning asosiy maqsadi — yo'lining paydo bo'lish bosqichlarini tarixiy ketma-ketlikda va ilmiy dalillar bilan tahlil qilishdir.

1. Buyuk Ipak yo'ligacha bo'lgan ilk savdo aloqalari

Buyuk Ipak yo'li miloddan avvalgi II asrda yaxlit tizimga aylangunga qadar, mintaqamizda bir nechta yirik savdo yo'llari mavjud bo'lgan. Bu yo'llar keyinchalik Ipak yo'lining poydevori bo'lib xizmat qildi. **Lojuvard (La'l) yo'li:** Buyuk Ipak yo'li paydo bo'lishidan ancha oldin O'rta Osiyo va qadimgi Sharq o'rtasida karvon yo'llari bo'lgan. Ularning eng birinchisi — «Lojuvard yo'li»dir. Bu yo'l miloddan avvalgi III–II ming yilliklarda shakllangan. U Pomir tog'laridan (Badaxshon muxtor viloyati) boshlanib, Eron va Misrga qadar yetib borgan. Badaxshon lojuvardi (ko'k qimmatbaho tosh) Misr fir'avnlari qabrlaridan topilgani Markaziy Osiyoning juda qadimdan xalqaro savdoda ishtirok etganini isbotlaydi.

Shoh yo'li: Yana bir qadimiy yo'l — «Shoh yo'li» deb ataladi. U Eron shohlari tomonidan qurilgani uchun shunday nom olgan. Miloddan avvalgi VII–IV asrlarda rivojlangan bu yo'l Kichik

Osiyoni Eron bilan, uning ikkinchi tarmog'i esa Baqtriya orqali So'g'diyona va Oltoy yerlari bilan bog'lagan. Oltoydagi Pazarig' qo'rg'onidan topilgan O'rta Osiyo matolari o'sha davrdagi qizg'in aloqalardan dalolat beradi.

2. Xitoy elchisi Chjan Szyan va yo'lining rasmiy ochilishi

Buyuk Ipak yo'lining butun dunyoni bog'lovchi tizimga aylanishi Xitoy elchisi Chjan Szyan nomi bilan bog'liq. Miloddan avvalgi 138-yilda Xitoy imperatori tomonidan yuborilgan bu kishi Markaziy Osiyoni, ayniqsa Farg'ona (Davon) vodiysini Xitoy uchun kashf qildi.

Uning hisobotlaridan keyin Xitoy hukumati G'arb bilan muntazam aloqa o'rnatishga qaror qildi. «Ipak yo'li» degan nomning o'zini esa ancha keyin, 1877-yilda nemis olimi Ferdinand fon Rixtgofen taklif qilgan. Bu yo'l qariyb 12 ming kilometr ga cho'zilgan bo'lib, Xitoyning qadimiy poytaxti Sian shahridan boshlanib, O'rta yer dengizigacha yetib borgan.

3. O'rta Osiyo va Kushonlar davri: Savdoning oltin davri

Milodiy I-IV asrlarda Kushonlar davlati gullab-yashnagan paytda Ipak yo'li o'zining eng yuqori darajasiga chiqdi. Bu davrda quyidagi o'zgarishlar yuz berdi:

Kushonlar imperiyasi davrida xalqaro savdo xavfsizligi va yo'llarni boshqarish tizimida katta o'zgarishlar bo'ldi. Buyuk Ipak yo'lining janubiy tarmoqlarini, shuningdek, mintaqa ichidagi bir qancha ichki mahalliy yo'llarni nazorat qilish to'liq mahalliy aholi va mahalliy hukmdorlar qo'liga o'tdi. Bu holat tashqi kuchlarning (masalan, Xitoyning ilk davrlardagi harbiy ta'sirining) kamayishiga va mahalliy savdogarlarning, ayniqsa so'g'diylarning mavqei oshishiga olib keldi. Yo'llardagi xavfsizlikning ta'minlanishi esa G'arb va Sharq o'rtasidagi munosabatlarni yanada mustahkam bo'lishini ta'minladi.

Ilgari faqat Xitoyning qattiq sir saqlanadigan monopoliyasi bo'lgan ipak qurti boqish va ipak yetishtirish texnologiyasi Farg'ona, So'g'd va Baqtriya hududlariga kirib keldi va shu yerning o'zida ipak matolar tayyorlana boshladi. Bu jarayon O'rta Osiyoni nafaqat ipak sotib oluvchi, balki uni qayta ishlovchi va eksport qiluvchi yirik sanoat markaziga aylantirdi.

Mintaqamiz hududidan topilgan arxeologik topilmalar o'sha davrdagi tijorat aloqalari naqadar keng bo'lganini aniq faktlar bilan ko'rsatib beradi. Antik davrdan boshlangan taraqqiyot jarayonlarining Ipak yo'li bilan uzviy bog'liqligi arxeologiyada o'z isbotini topgan. Janubiy yo'nalishda joylashgan **Termiz** (qadimgi Baqtriya) hududidan Rim imperiyasiga tegishli oltin va kumush tangalarning topilishi o'zbek yerlarining O'rta yer dengizi havzasi bilan to'g'ridan-to'g'ri savdo qilganidan dalolat beradi. Samarqanddagi **Afrosiyob** yodgorligidan qadimgi Misr madaniyatiga xos bo'lgan muhrlar va buyumlarning uchrashi esa Ipak yo'lining Shimoliy va Markaziy tarmoqlari naqadar faol ishlaganini ko'rsatadi.

4. Madaniyat va ilm-fan almashinuvi

Buyuk Ipak yo'li tarixiy taraqqiyotning shunday bosqichiki, u shunchaki moddiy tovarlar (ipak, choy, ziravorlar) tashiladigan yo'l emas, balki ulkan ma'naviy va intellektual xazinaga aylangan. Ushbu yo'l orqali insoniyat sivilizatsiyasini tubdan o'zgartirgan kashfiyotlar bir qit'adan ikkinchisiga o'tgan. Shu yo'l orqali Xitoydan qog'oz va kompas, O'rta Osiyodan esa zargarlik va shishasozlikning sir asrorlari butun dunyoga yoyildi. Ayniqsa, Samarqand qog'ozining dunyoga mashhur bo'lishi aynan shu yo'lining xizmatidir. Milodiy 751-yildagi Talas jangidan so'ng, qog'oz tayyorlash mahorati Markaziy Osiyo orqali Yevropaga yetib bordi va bu intellektual inqilobga - kitob savdosi va ilm-fan rivojiga turtki berdi. O'z navbatida, G'arbdan va O'rta Osiyodan Sharqqa shishasozlik san'ati, murakkab zargarlik uslublari va metallni qayta ishlash sirlari yetkazildi. Ipak yo'li chorrahasida joylashgan hududlar - Xorazm, So'g'd va Baqtriya yerlari ilm-fan markazlariga

aylandi. R. Umarova o'z tadqiqotlarida ta'kidlaganidek, bu muhit turli tillarni biladigan, turli madaniyatlarni tushunadigan qomusiy olimlarning yetishib chiqishiga zamin yaratdi.

Abu Rayhon Beruniy o'zining astronomik va geografik hisob-kitoblarida Ipak yo'li orqali kelgan hind va yunon manbalaridan samarali foydalangan.

Ibn Sinoning tibbiy qonunlari ushbu yo'l orqali Yevropa universitetlarigacha yetib borib, asrlar davomida darslik sifatida o'qitildi. Bu olimlarning asarlari turli madaniyatlar tutashgan nuqtada - bilimlar almashinuvi avjiga chiqqan muhitda dunyoga keldi.

5. «Bir makon, bir yo'l» tashabbusi va bugungi O'zbekiston Prezident Sh. Mirziyoyev 2019-yilda Pekinda o'tgan xalqaro anjumanda Ipak yo'lini zamonaviy shaklda qayta tiklash bo'yicha muhim takliflarni ilgari surdilar. Davlatimiz rahbari O'rta Osiyoda yo'l-transport loyihalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Bugun qurilayotgan yangi temir yo'llar va avtomobil yo'llari qadimiy karvon yo'llarining munosib davomchisi bo'lib, yurtimizni dunyo bozorlari bilan bog'lamoqda.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Buyuk Ipak yo'li insoiyat tarixidagi eng ulkan yutuqlardan biridir. U O'rta Osiyo xalqlarining ham iqtisodiy, ham madaniy jihatdan o'sishiga katta yordam bergan. Tarixiy ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston bu yo'lning markaziy qismi sifatida o'tmishda ham, bugun ham muhim o'ringa ega. Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev boshchiligidagi yangi tashabbuslar bu qadimiy yo'lga yangi hayot bag'ishlab, mintaqamiz tinchligi va farovonligiga xizmat qilmoqda.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Ramatov J.S., Umarova R.Sh. Buyuk Ipak yo'lining paydo bo'lishi va rivojlanishi // Oriental Renaissance. – 2023. – Vol. 3. – B. 107-113.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning «Bir makon, bir yo'l» ikkinchi xalqaro forumidagi nutqi. Pekin shahri, 2019-yil 26-aprel. (president.uz saytidan olindi).